

MAHALLA YoShLARI BELBOG'LI KURASH BO'YICHA O'ZARO BELLASHDI



MAHALLA YoShLARI BELBOG'LI KURASH BO'YICHA O'ZARO BELLASHDI

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Respublikamiz hududida va ayniqsa, So'x tumanida ham mahalallarga tayinlangan yoshlar yetakchilari sa'y-harakatlari bois, sport sohasi rivojlanmoqda. Turli sport tadbirlarini tashkil etilishi tufayli, yoshlarning ushbu sohaga qiziqishi ortib borayotir.

Saribozorcha mahalla fuqarolar yig'ini yoshlar yetakchisi Muhib A'zamjonov tashabbusi bilan tashkil etilgan sport tadbirida mahallaning yoshlari va uyushmagan yoshlar vakillari qatnashdi.

Mahallaning 18 dan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlari belbog'li kurash bo'yicha o'zaro bellashdi. Musobaqa qiziqarli o'tdi va g'oliblar nomi ham aniqlandi. Tadbir oxirida faol bo'lgan yosh sportchilar va g'oliblarga esdalik sovg'alari taqdim etildi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-02-26 17:31:31